XALQ DEPUTATLARI QUVASOY SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 30-oktabr VII-12-72-11-167-K/25 Quvasoy shahar

Quvasoy shahridagi aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini 2026-yilda ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish to‘g‘risida

“Aholi bandligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 9-bobi hamda Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga asosan 2026-yil uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Quvasoy shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. Quyidagilar:

a) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini 2030-yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2025-yil 23-iyundagi PF–98-son Farmoniga asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish vakolatlari Xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga o‘tkazilganligi;

b) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mehnat munosabatlari va kasbga tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda ish beruvchilarni

rag‘batlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 4-avgustdagi PF-126-son Farmoniga asosan:

xo‘jalik yurituvchi subyektlar faqat nogironligi bo‘lgan shaxslar, oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar, kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari, muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim shaxslar, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar uchun ish o‘rinlarining majburiy zaxiralari shakllantirilishi, bunda majburiy zaxiralash xodimlar umumiy sonining 3 foizidan oshmasligi hamda xodimlari soni 100 nafardan ortiq bo‘lgan tashkilotlarga nisbatan qo‘llanilishi;

byudjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar faqat nogironligi bo‘lgan shaxslar, oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar, kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari, muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim shaxslar, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan hamda odam savdosidan jabrlangan shaxslar uchun ish o‘rinlarining majburiy zaxiralari shakllantirilishi, bunda majburiy zaxiralash xodimlar umumiy sonining 7 foizidan oshmasligi hamda xodimlari soni 20 nafardan ortiq bo‘lgan tashkilotlarga nisbatan tatbiq etilishi belgilanganligi rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Quvasoy shahar Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi hamda Quvasoy shahar “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazining Quvasoy shahar hududidagi tashkilotlar bo‘yicha 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun ish o‘rinlarini belgilash to‘g‘risidagi **quyidagi** takliflari ma’qullansin:

- xodimlar soni 20 nafardan ortiq bo‘lgan davlat tashkilotlarida majburiy zaxiralanadigan ish o‘rinlari soni xodimlar umumiy sonining yetti foizidan oshmagan miqdorda hamda xodimlar soni 100 nafardan ortiq bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarda (davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar bundan mustasno) majburiy zaxiralanadigan ish o‘rinlari soni xodimlar umumiy sonining uch foizidan oshmagan miqdorida kelgusi yil uchun **181 ta** ish o‘rinlarini zaxiraga qo‘yish, jumladan:

- nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun (66 kishi);

- oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar uchun (15 kishi);

- kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari uchun (76 kishi);

-muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar uchun (9 kishi);

- jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslar uchun (10 kishi);

- odam savdosidan jabrlangan shaxslar uchun (5 kishi) miqdorida ish o‘rinlarining majburiy zaxiralari shakllantiriladi.

3. 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish maqsadida **quyidagilar:**

davlat tashkilotlari (byudjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar) tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli ro‘yxati **1-ilovaga** muvofiq;

xodimlarining ro‘yxatdagi o‘rtacha yillik soni yuz nafardan ortiqni tashkil etadigan xo‘jalik yurituvchi subyektlar (davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar bundan mustasno) tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli ro‘yxati **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

4. Korxonalar, tashkilotlar va muassasalar rahbarlari:

zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlari umumiy sonining kamida yigirma besh foizi miqdorida zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining tayyorligini yil boshlanishidan oldin o‘n kundan kechiktirmay ta’minlashi, shuningdek, bu haqda yil boshlangunga qadar Quvasoy shahar Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limini xabardor qiladi;

ish o‘rinlarining qolgan qismini zaxiraga qo‘yish tashkilot (ish beruvchi) tomonidan kalendar yilning birinchi choragi mobaynida ta’minlashi, bu haqda Quvasoy shahar Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limini birinchi chorak tamom bo‘lganidan so‘ng, 10 kundan kechikmay xabardor qiladi;

ishga joylashtirish to‘g‘risida Quvasoy shahar Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 5-sanasiga qadar axborot taqdim etadi.

Zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarini saqlash shartlari O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunining 40-moddasiga muvofiq belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholini tadbirkorlikka jalb qilish va bandligini ta’minlash uchun moliyaviy yordamlar ajratish tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 14-fevraldagi PQ-64-son qaroriga muvofiq aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalaridan bo‘lgan shaxslarni ish o‘rinlarining belgilangan eng kam sonidan ortiq miqdorda ishga qabul qilish uchun ish beruvchilarga – har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida subsidiya mablag‘larini to‘lab berilsin.

6. O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonuni 3-, 13-, 34-, 38-, 39-, 40-, 41-moddalariga asosan aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalariga eng kam miqdordagi ish joylarini yaratish yuzasidan qabul qilingan mazkur qarorni bajarmaganlik uchun ish beruvchilar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Nizomning 21-bandi, 2-qismiga asosan, muhtojlar uchun ish o‘rinlarini zaxiraga qo‘yish bo‘yicha Quvasoy shahar Kengashining qarori bajarilmaganligi uchun jarima to‘lash tashkilotni zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining belgilangan sonini yaratish bo‘yicha majburiyatdan ozod qilmaydi.

8. Quvasoy shahar Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (E.Tashbekov):

- besh kun muddatda ushbu qaror nusxasini 1 va 2-ilovalarda ko‘rsatilgan tashkilotlar rahbarlarining e’tiboriga yetkazsin va ushbu qaror bajarilishi ustidan nazoratni ta’minlasin;

- aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash bo‘yicha xalq deputatlari Quvasoy shahar Kengashining ushbu qarori bajarilmaganda, shuningdek, ularni ishga qabul qilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun tashkilotlarning mansabdor shaxslariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma’muriy javobgarlikka tortish ta’minlansin.

9. Mazkur qaror ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinsin hamda hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

10. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish shahar hokimining birinchi o‘rinbosari (A.Kadirov) hamda shahar Kengashing “Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha doimiy komissiya”si (A.Qasimov) zimmasiga yuklatilsin.

11. Mazkur qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi TO‘RAKULOV ZAFARJON KODIROVICH

Xalq deputatlari Quvasoy shahar Kengashining
2025-yil 30-oktabrdagi
VII-12-72-11-167-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Quvasoy shahar 2026 yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun davlat tashkilotlari (budjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar) tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli
RO‘YXATI

T/r	Tuman nomi	Tashkilot nomi	Tashkilot-ning STIRi	Shtat jadvali bo‘yicha xodimlarning umumiy soni	shundan,	Kelgusi yil uchun zaxiraga qo‘yladigan ish o‘rinlari soni	shu jumladan:					
					nogironligi bo‘lgan shaxslar soni		nogironligi bo‘lgan shaxslar	oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar	Kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari	muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar	jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslar	odam savdosidan jabrlangan shaxslar
JAMI:				**4891**	**25**	**134**	**58**	**3**	**52**	**6**	**10**	**5**
		Quvasoy shahar		**4891**	**25**	**134**	**58**	**3**	**52**	**6**	**10**	**5**
1	Quvasoy shahar	"MAKTABGACHA VA MAKTAB TALIMI BOLIMI"	200123030	51		2			1	1		
2	Quvasoy shahar	"1-UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI"	203248498	101		4	1		1	1		1
3	Quvasoy shahar	"2-UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI"	203248514	80		3	1		1		1	
4	Quvasoy shahar	"3-UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI"	201768493	121		4	1		1	1		1
5	Quvasoy shahar	"4-UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI"	203248521	39		2	1		1			
6	Quvasoy shahar	"5-UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI"	203248538	70		3	1		1		1	
7	Quvasoy shahar	"6-UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI"	206884118	46		2	1		1			
8	Quvasoy shahar	"7-UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI"	206885915	36		2	1		1			
9	Quvasoy shahar	"8-UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI"	206913056	63		2	1		1			

10	Quvasoy shahar	"9-UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI"	206884125	38		1	1					
11	Quvasoy shahar	"10-UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI"	203248545	46		2	1		1			
12	Quvasoy shahar	"11-UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI"	203248553	69		2	1		1			
13	Quvasoy shahar	"12-UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI"	203248560	48		2	1		1			
14	Quvasoy shahar	"13-UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI"	203248577	49		2	1		1			
15	Quvasoy shahar	"14-UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI"	203248506	59	1	0						
16	Quvasoy shahar	"15-UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI"	203248584	58		2	1		1			
17	Quvasoy shahar	"16-UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI"	203248592	70		1	1					
18	Quvasoy shahar	"17-UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI"	203248600	57		1	1					
19	Quvasoy shahar	"18-UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI"	203248617	95	2	1			1			
20	Quvasoy shahar	"19-UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI"	203248624	67		2	1		1			
21	Quvasoy shahar	"20-UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI"	203248632	53		2	1		1			
22	Quvasoy shahar	"21-UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI"	203248649	47		1	1					
23	Quvasoy shahar	"22-UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI"	206884140	49		2	1		1			
24	Quvasoy shahar	"23-UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI"	206965934	36		1	1					
25	Quvasoy shahar	"24-UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI"	203248656	67		2	1		1			
26	Quvasoy shahar	"25-UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI"	204652312	54		1	1					
27	Quvasoy shahar	"26-UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI"	206884133	40		1	1					
28	Quvasoy shahar	"27-UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI"	206890443	46	1	1			1			
29	Quvasoy shahar	"28-UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI"	206890435	40		1	1					
30	Quvasoy shahar	"29-UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI"	203248664	106	1	4	1		1		1	1
31	Quvasoy shahar	"3-SONLI DMTT"	305477390	34		2	1		1			
32	Quvasoy shahar	"4-SONLI DMTT"	207048712	42		2	1		1			
33	Quvasoy shahar	"5-SONLI DMTT"	305476844	43		2	1		1			
34	Quvasoy shahar	"6-SONLI DMTT"	305484415	42		2	1		1			
35	Quvasoy shahar	"7-SONLI DMTT"	305455825	34		2	1		1			

36	Quvasoy shahar	"8-SONLI DMTT"	305484652	43		2	1		1			
37	Quvasoy shahar	"10-SONLI DMTT"	207028697	26	1	1			1			
38	Quvasoy shahar	"12-SONLI DMTT"	207006850	49		2	1		1			
39	Quvasoy shahar	"13-SONLI DMTT"	207028705	26		2	1		1			
40	Quvasoy shahar	"14-SONLI DMTT"	305483812	29		2	1		1			
41	Quvasoy shahar	"15-SONLI DMTT"	207080628	40		1	1					
42	Quvasoy shahar	"16-SONLI DMTT"	207044987	36		1	1					
43	Quvasoy shahar	"17-SONLI DMTT"	207045004	42		2	1		1			
44	Quvasoy shahar	"18-SONLI DMTT"	207046501	34		1	1					
45	Quvasoy shahar	"19-SONLI DMTT"	207045384	36		3	1		1		1	
46	Quvasoy shahar	"21-SONLI DMTT"	207028713	39		2	1		1			
47	Quvasoy shahar	"22-SONLI DMTT"	207005117	50		2	1		1			
48	Quvasoy shahar	"24-SONLI DMTT"	305485571	35		2	1		1			
49	Quvasoy shahar	"25-SONLI DMTT"	207046485	38		2	1		1			
50	Quvasoy shahar	"26-SONLI DMTT"	305484114	34		1	1					
51	Quvasoy shahar	"27-SONLI DMTT"	207046114	41		2	1		1			
52	Quvasoy shahar	"28-SONLI DMTT"	207046493	41		2	1		1			
53	Quvasoy shahar	"90-SONLI MAKTAB INTERNATI"	200123197	149		4	1	1	1		1	
54	Quvasoy shahar	"11-SON BOLALAR MUSIQA VA SAN'AT MAKTABI"	203410004	76		2	1		1			
55	Quvasoy shahar	"1-SON SPORT MAKTABI"	303828674	70	1	2	1		1			
56	Quvasoy shahar	"2-SON SPORT MAKTABI"	309867647	44	3	0						
57	Quvasoy shahar	"AXBOROT-KUTUBXONA MARKAZI"	306676602	32		2	1		1			
58	Quvasoy shahar	"BARKAMOL AVLOD BOLALAR MAKTABI"	207123517	50		3	1		1		1	
59	Quvasoy shahar	"QUVASOY SHAHAR IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABI"	309860894	48		3	1		1		1	
60	Quvasoy shahar	"QUVASOY YO`LLARDAN FOYDALANISH"	306657926	66		3	1		1		1	
61	Quvasoy shahar	"QUVASOY SHAHAR TIBBIYOT BIRLASHMASI"	200123134	1131	3	6		1	2	2		1

62	Quvasoy shahar	"QUVASOY SHAHAR SEO VA JSB"	201120540	61	1	2	1		1			
63	Quvasoy shahar	"QUVASOY SHAHAR MADANIYAT ISHLARI BO'LIMI"	200123119	65		2	1		1			
64	Quvasoy shahar	"QUVASOY SHAHAR SUV YETKAZIB BERISH XIZMATI" DM	305078928	46		3	1		1		1	
65	Quvasoy shahar	"OBODONLASHTIRISH BOSHQARMASI"	200123054	418	11	6	1	1	1	1	1	1

Xalq deputatlari Quvasoy shahar Kengashining
2025-yil 30-oktabrdagi
VII-12-72-11-167-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Quvasoy shaharida 2026 yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun xodimlarining ro‘yxatdagi o‘rtacha yillik soni yuz nafardan ortiqni tashkil etadigan xo‘jalik yurituvchi subyektlar (davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar bundan mustasno) tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli
RO‘YXATI

T/p	Tashkilot nomi	Tashkilot-ning STIRi	Shtat jadvali bo‘yicha xodimlarning umumiy soni	shundan,	Kelgusi yil uchun zaxiraga qo‘yladigan ish o‘rinlari soni	shu jumladan:			
				nogironligi bo‘lgan shaxslar soni		nogironligi bo‘lgan shaxslar	oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar	Kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari	muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar
Жами:			**3808**	**19**	**47**	**8**	**12**	**24**	**3**
	Қувасой шаҳар		**3808**	**19**	**47**	**8**	**12**	**24**	**3**
1	"QUVASOYSHIFER HRIZOTIL" MChJ	305581374	299		8	2	2	4	
2	"QUVASOYCEMENT" AJ	200124805	274		8	2	2	4	
3	"82-KO`CHMA MEXANIZATSIYALASHGAN KOLONNA" MChJ	200124741	190		5	1	1	3	
4	"BUILDING SERVIS GROUP" MChJ	305718217	123		3	1	1	1	
5	"FERGANA CERAMICS" MChJ	309159736	118		3	1		2	
6	"KVARTS" AJ	200124765	1694	6	4	1	1	1	1
7	"BUILDING MATERIALS PRODUCTION AND TRADING GROUP" MChJ QK	207014003	189	2	3		1	2	
8	"QUVASOY NASLLI PARRANDA" MChJ	302247164	106	2	1			1	
9	"ARKAN" MCHJ	301749735	125	1	2		1	1	

10	"GRAND SUPER MONTAJ" XK	304390390	171	3	2		1	1	
11	"MOBILE DRIVE" MCHJ	305144742	123	1	2		1	1	
12	"GREY MIX SEMENT GROUP" MCHJ	308043709	161	1	3		1	1	1
13	"QUVASOY MARKET CITY" MCHJ	311020483	103	2	1			1	
14	"GARDEN CATERING TRADE" MCHJ QK	311414404	132	1	2			1	1